
«BESH TASHABBUS OLIMPIADASI»: YANGI SPORT MAYDONCHALARIDA YOSHLARNING BO'SH VAQTI MAZMUNLI O'TMOQDA

Toshloq tumanida «Besh tashabbus olimpiadasi» sport musobaqalarining respublika bosqichi g'olib va sovrindorlari uchun universal sport maydonchalari qurib, foydalanishga topshirilmoqda.

Hususan, Besarang MFYdagi sportchi qizlar «Besh tashabbus olimpiadasi» doirasida sportning Stritbol turi bo'yicha 27-30 yoshlar toifasida birinchi o'rinni egallagan edi. Shu munosabat bilan musobaqa g'oliblariga yangi universal sport maydonchasi barpo etildi.

Hozirda ushbu sport maydonchasi barcha jihozlar bilan ta'minlanib, mahalla yoshlari ihtiyoriga topshirilgan. Bu yerda har kuni yoshlar bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazib, doimiy sport bilan shug'ullanishmoqda.

2023-08-07 11:23:32